

OLIV TA'LIM MUASSASALARI AKADEMIK XONANDALIK YO'NALISHI TALABALARINING IJROCHILIK MAHORATINI SHAKLLANTIRISHDA PEDAGOGNING KASBIY MAHORATI



Saidmuhamedova Lola Zaynutdinovna

O'zbekiston davlat konservatoriyasi,

“Akademik xonandalik va opera tayyorlov” kafedrasida katta

o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19479216>

Annotatsiya. *Mazkur maqolada oliy ta'lim muassasalari akademik xonandalik yo'nalishi talabalarining ijrochilik mahoratini shakllantirishda pedagogning kasbiy mahorati va uning tutgan o'rni yoritilgan. Shu bilan birga, bo'lajak san'atkorlarning faqatgina ijro ko'nikmalarini emas, ularning irodaviy sifatlari, badiiy tafakkuri va emotsional-psixologik tayyorgarligini rivojlantirishda ustoz-shogird an'alarining ahamiyati g'oyatda yuqori ekanligi tahlil qilinadi. Shuningdek, maqolada pedagogik-psixologik omillar, xususan, talabaning ichki to'siqlarini yengishda pedagogning metodik yondashuvlari, talaba bilan professional darajada to'g'ri ishlashishi, ijrochi-talabaning kelajakda professional darajada shakllanishi pedagog mahoratiga bog'liq ekanligi alohida qayt etiladi.*

Kalit so'zlar: *akademik xonandalik, pedagogik mahorat, ijrochilik mahorati, oliy ta'lim, metodik yondashuv.*

Аннотация. *В данной статье рассматривается профессиональное мастерство педагога и его роль в формировании исполнительских навыков студентов академического вокала в высших учебных заведениях. Наряду с этим анализируется высокая значимость традиций «учитель-ученик» в развитии не только исполнительских умений будущих артистов, но и их волевых качеств, художественного мышления и эмоционально-психологической подготовки. Также особо подчеркивается влияние педагогико-психологических факторов, в частности, методических подходов педагога к преодолению внутренних барьеров студента, грамотной профессиональной работы с обучающимся, а также прямая зависимость становления будущего профессионального исполнителя от мастерства педагога.*

Ключевые слова: *академическое пение, педагогическое мастерство, исполнительское мастерство, высшее образование, методический подход.*

Abstract. *This article examines the professional mastery of the teacher and its role in shaping the performance skills of students in the field of academic singing in higher education institutions. At the same time, it analyzes the immense importance of “master-apprentice” (teacher-student) traditions in developing not only the performance skills of future artists but also their volitional qualities, artistic thinking, and emotional-psychological readiness. Furthermore, the article specifically emphasizes pedagogical and psychological factors, particularly the*

teacher's methodical approaches to overcoming the student's internal barriers, the necessity of professional-level interaction with the student, and the fact that the future professional development of the student-performer is directly dependent on the teacher's mastery.

Keywords: *academic singing, pedagogical mastery, performance skills, higher education, methodical approach.*

Oliy musiqiy ta'lim tizimi deganda, biz tashkiliy va pedagogik jihatdan o'zaro bog'langan hamda professional musiqachilar – ijrochilar, kompozitorlar, musiqashunoslar, shuningdek, san'at sohasi muassasalari (musiqa bilim yurtlari, konservatoriyalar va h.k.) uchun pedagog kadrlar tayyorlashni amalga oshiruvchi oliy professional ta'lim tashkilotlarining tarkibiy majmuasini tushunamiz[1:35]. Mazkur oliy professional ta'lim tizimining tarkibiy qismi hisoblangan akademik xonandalik yo'nalishida mutaxassis tayyorlash jarayoni o'ziga xos murakkab pedagogik va ijodiy xususiyatlarga ega. Tizimning barqaror faoliyati tashkiliy tuzilmaga shu bilan birga, bevosita ta'lim beruvchi shaxsining kasbiy mahorati va uning metodik izlanuvchanligiga tayanadi.

Ijrochilik san'atida nazariy bilimlarni amaliy ko'nikmaga aylantirish ko'p jihatdan pedagogik muloqotning sifatiga bog'liq bo'lib, bu jarayonda ustozning ijodiy yondashuvi hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Akademik xonandalik yo'nalishi pedagogi o'quv jarayonida talabalarni faollashtiradigan, o'zi va o'rganuvchi uchun qulay bo'lgan usul va uslublarni, o'qitish shakllari hamda metodik vaziyatlarni muntazam izlab borishi lozim. Bugungi kunda ustoz-shogird an'analariga sodiq qolgan holda, zamonaviy pedagogik texnologiyalarga suyanish va o'quv jarayoni samaradorligini oshirishda to'plagan kasbiy mahoratidan unumli foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Pedagog bo'lajak xonandalarni ijro texnikasini egallash bilan birga mustaqil va tahliliy fikrlashga o'rgatish orqali ta'limning yuksak sifat hamda samaradorligiga erishadi. Akademik xonandalik ustozining kasbiy mahorati, avvalo, ta'lim-tarbiya sohasida to'plangan boy metodik tajribalarni chuqur o'rganishidan boshlanadi. Bu esa talaba ovozi ustida ishlashda yuzaga keladigan ko'plab vokal va texnik muammolarni to'g'ri hal etishda yaqindan yordam beradi.

Ijrochilik mahoratini shakllantirishda ilg'or vokal maktablari vakillari va tajribali pedagoglar faoliyati bilan bir qatorda, amaliyotchi o'qituvchilarning kundalik ish uslublarini ham o'rganib borish zarur. Zero, tajribalarni qiyosiy o'rganish jarayonida vokal pedagogikasidagi yutuqlar va yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan metodik kamchiliklar aniqlanadi. Akademik xonandalikda har bir individual darsning o'ziga xos xususiyati mavjud bo'lib, pedagogning ham o'ziga xos "kasbiy sirlari" bo'ladi. Akademik musiqa san'atiga bo'lgan cheksiz muhabbat, yuksak did, talabaga o'z bilim va tajribalarini to'liq yetkazishga intilish hamda o'z kasbiga sidqidildan sadoqat bilan yondashish professional pedagogning ma'naviy qiyofasini belgilaydi. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, pedagogik mahorat faqatgina tayyor metodikani talabaga yetkazish emas, murakkab ilmiy-nazariy qarashlarni amaliy ko'nikmalarga aylantira olish qobiliyatini ham talab qiladi.

Ko'p hollarda talabalar vokal texnikasini egallashga haddan tashqari ko'p e'tibor qaratib, musiqashunoslik va psixologiya fanlarining ahamiyatini ikkinchi darajaga tushirib qo'yadilar. Bu esa kelajakda ularning xonandalik bilan birga pedagog sifatidagi faoliyatida ham bir tomonlamalikni keltirib chiqaradi. Binobarin, pedagogning kasbiy mahorati talabada nazariy bilimlarni amaliy ehtiyoj sifatida ko'ra olish ko'nikmasini uyg'otish va bu bilimlarni ijro jarayonining ajralmas qismi ekanligini isbotlab berishda namoyon bo'ladi.

"Musiqashunoslik, psixologik-pedagogik bilimlarni nazariy jihatdan o'zlashtirish hamda ularni mustaqil musiqiy-pedagogik faoliyat jarayonida amaliy qo'llash o'rtasidagi ziddiyatni

alohida ta'kidlash lozim – deydi musiqashunos Kozlov Nikolay Ivanovich, – pedagogik kadrlarni mustaqil musiqiy-pedagogik faoliyatga tayyorlashning amaldagi tizimida ko'plab, hatto yetarli darajada ishlab chiqilgan metodologik, musiqashunoslik va psixologik-pedagogik ilmiy yo'nalishlar ko'pincha talabalar tomonidan anglanmaydi va qabul qilinmaydi. Buning sababi, o'qish jarayonida ushbu bilimlarni amalda qo'llashga bo'lgan ehtiyoj shakllantirilmaganidir. Avvalgidek, pedagog-musiqachining amaliy faoliyatida yaxlit o'qitish jarayonini rejalashtirish hamda o'quvchilarning umumiy va maxsus qobiliyatlari rivojlanishi kontekstida ularning musiqiylik darajasini baholash ko'nikmalari bilan bog'liq qiyinchiliklar yuzaga kelmoqda[2:7].

Akademik xonandalik yo'nalishi talabalarining ijrochilik mahoratini shakllantirish jarayonida nazariy bilimlarning amaliyotdan uzilib qolishi talabaning professional shakllanishiga to'sqinlik qiluvchi asosiy omillardan biri bo'lib qolmoqda. Shu sababli, bo'lajak mutaxassis ovoz texnikasini, musiqashunoslik va psixologik-pedagogik bilimlarni o'z ijrosining ajralmas qismi sifatida anglab yetishi shart. Tajribali pedagoglar akademik xonandalik san'atining murakkabligini hamda ustoz va ijrochi o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni alohida ko'rsatib o'tganlar. Akademik xonandalik yo'nalishi pedagogi o'quv va tarbiyaviy ishlarni ham olib boradi. U keng nazariy bilimga ega bo'lishi, o'z mutaxassisligining vokal-texnik sirlarini ham mukammal bilishi lozimdir. Bo'lajak xonandalarni vokal san'ati orqali tarbiyalashda ularning dunyoqarashi, musiqiy tafakkuri va asar mazmunini tushunishi birinchi darajali ahamiyatga ega.

Musiqqa inson hissiyatini, ayniqsa, emotsional-estetik idrokini faol rivojlantiradi. Ayniqsa, akademik xonandalik yo'nalishi bo'yicha ta'lim olayotgan talabalar bo'lajak ijodkorlardir. Shuning uchun ham ularning ijrochilik mahoratini shakllantirishda pedagog tomonidan ko'proq erkinlik va ijodkorlik omillaridan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi. U kasbiy jihatdan mahoratli bo'lishi talab etiladi. "Pedagogik ensiklopediya"da mahoratli pedagog quyidagicha izohlangan: "O'z kasbining mohir ustasi bo'lgan, yuksak darajada madaniyatli, o'z fanini chuqur biladigan, yondosh fanlar sohasini yaxshi tahlil eta oladigan, tarbiyalash va o'qitish uslubiyatini mukammal egallangan mutaxassis". Ushbu ta'rifning mohiyatidan kelib chiqib o'qituvchining pedagogik mahorati tushunchasi mazmunini shunday izohlash mumkin:

1. Madaniyatning yuqori darajasi, bilimdonlik va aql-zakovatning yuksak ko'rsatgichi.
2. O'z faniga doir bilimlarning mukammal sohibi.
3. Pedagogika va psixologiya kabi fanlar sohasidagi bilimlarni puxta egallaganligi, ulardan kasbiy faoliyatida foydalana olishi.
4. O'quv-tarbiyaviy ishlar metodikasini mukammal bilishi.

Demak, akademik xonandalik yo'nalishi talabalarining ijrochilik mahoratini rivojlantiruvchi pedagog yuqoridagi barcha vazifalarni amalga oshirishi va o'zini doimo rivojlantirish layoqatiga ega bo'lmag'i darkor. Pedagogik mahorat tizimi quyidagi o'zaro biri-biri bilan bog'liq bo'lgan asosiy komponentlaridan iborat:

1. Pedagogik insonparvarlik talablariga bo'ysunishi.
2. Kasbga oid bilimlarni boshqa fanlar bilan aloqadorlik mukammal bilish.
3. Pedagogik qobiliyatga ega bo'lish.
4. Pedagogik texnika sirlarini puxta egallash [3: 230].

Akademik xonandalikni o'qitishda, birinchi navbatda, pedagogning mahorati bosh omil hisoblanadi. Chunki, boshqa fanlardan farqli ravishda, ushbu yo'nalishda nazariya bilan amaliyotni uzviy ravishda birdek olib borish zarur. Masalan, talabaga faqat nazariy bilimlarni o'rgatib, uni vokal ijrosi uchun sahna yoki royal oldiga qo'ysangiz, u mukammal ijro etib keta olmaydi.

Talabaga yillar davomida nazariy bilimlar bilan birga, teng ravishda amaliy vokal mashg'ulotlarini o'rgatib borish joizdir. Bunda bosh unsur pedagogning talaba bilan individual tartibda amaliy ishlash mahoratidir. Vokal ustozining dars jarayonida yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanishi, o'zining ta'sirchan so'zi, ifodali va jonli ijrosi, kuylanayotgan musiqaga nisbatan mutanosib imo-ishoralar, harakatlar hamda savol-javoblar orqali talabalar qalbida hosil bo'layotgan hissiy kechinmalarni chuqurlashtirishga, musiqiy asarni ongli idrok etishga ko'maklashib boradi. Kuzatishlarimiz shuni ko'rsatmoqdaki, akademik xonandalikning har bir darsi o'ziga xos murakkab ijodiy jarayon va muloqot mo'jizasidir. Unda o'qituvchining iqtidori, yangi pedagogik texnologiyalar asosida bilim berishi, tinimsiz mehnati, professional mahorati va fanga nisbatan qo'ygan yuksak talablari o'z aksini topadi. Akademik vokal ta'limi taraqqiyoti uchun qo'llanilayotgan zamonaviy texnologiyalarning yana bir muhim tomoni, o'quv maqsadlarini aniq belgilash va talabani professional ijrochilik darajasiga olib chiqishdan iboratdir. Ta'lim va tarbiya berish esa, pedagogdan yuksak mahorat talab qiladi. Yuksak pedagogik mahoratni shakllantirishni ta'minlovchi omillar quyidagilar:

- ixtisoslik bo'yicha o'quv predmetini, zamon, ilm-fan, texnika taraqqiyoti darajasida mukammal bilishi, uning boshqa o'quv fanlari bilan o'zaro aloqadorligini ta'minlash malakasiga ega bo'lishi;
- ta'lim oluvchilarning yosh, fiziologik, psixologik hamda shaxsiy xususiyatlarini hisobga olishi, ularning faoliyatini obyektiv nazorat qilishi va baholashi;
- ta'lim jarayonini demokratlashtirish va insonparvarlashtirish asosida o'z faoliyatini tashkil etishi;
- o'quv – tarbiyaviy jarayonni zamon talablari darajasida tashkil qilish uchun asosiy pedagogik – psixologik, metodik ma'lumotga ega bo'lishi;
- fanlarni o'qitish jarayonida zamonaviy axborot texnologiyalari imkoniyatlaridan keng foydalanish;
- jamoani “ko'ra bilish”, o'quvchilarning qiziqishlari, intilishlari, ular uchraydigan qiyinchiliklarni tushunish va hamdard bo'la olish, o'z vaqtida ular fikrini anglay bilish, zukkolik bilan har bir bolaning xarakter xususiyati, qobiliyati, irodasini tushunish hamda ularga muvaffaqiyatli ta'sir ko'rsatishning shakl, usul, vositalaridan xabardor bo'lishi;
- o'z shaxsiy sifatleri (nutqining ravonligi, tashkilotchilik qobiliyati, badiiy ehtiyoji, didi va hokazo)ni takomillashtirish malakasiga ega bo'lishi.

O'qituvchining pedagogik mahorati pedagogika oliy ta'lim muassasalarida shakllanib boradi. Yuksak saviyali pedagogik kadrlar tayyorlashga nisbatan talablar, ularning malakasini oshirish va qayta tayyorlash tizimini takomillashtirish, o'z kasbi bilan uzluksiz taraqqiyotga moslasha oladigan o'qituvchining shakllanishi, bo'lajak o'qituvchi umummilliy mavqeining o'sib borishini ta'minlaydi[4:15].

Shu bois, professional musiqiy-pedagogik faoliyat sohasidagi mutaxassislarining maxsus ijrochilik tayyorgarligi jarayonida turli xil tinglovchilar auditoriyasi uchun musiqani shaxsan ijro etishga yo'naltirilgan ko'nikma shakllantirilishi lozim. Bundan tashqari, mutaxassis tayyorlashning texnologik asoslari mutaxassislarining ijrochilik tayyorgarligini takomillashtirish uchun musiqiy-pedagogik yo'nalishdagi ta'lim jarayonining shakllari, metodlari va texnologiyalarini kengaytirish hamda rang-baranglashtirishni nazarda tutadi. Bularga quyidagilar kiradi:

- oddiy musiqiy asarlarni varaqdan o'qish (nota ustida birdan ijro etish);
- asarlarni xomaki (eskiz) va qisman (fragmentar) o'rganish;

- mazmuni va texnik vazifalari jihatidan murakkab hamda ijro etish osonroq, tayyorlanmagan tinglovchi uchun tushunarli bo'lgan asarlarni parallel ravishda o'zlashtirish;
- orkestr yoki opera partiyalaridagi xarakterli intonatsiyalarni illyustratsiya qilish (ko'rsatib berish);
- cholg'u vektorinalarini tuzish;
- an'anaviy va muqobil cholg'u ansambllari va hokazolar.

Shu bilan birga, musiqiy-pedagogik faoliyat sohasining bo'lajak mutaxassislari o'zlarining barcha musiqiy repertuarlarini didaktika nuqtai nazaridan to'plab borishlari, ya'ni ushbu musiqiy asarni qachon va qanday sharoitda auditoriya uchun sifatli hamda informativ tarzda ijro etish mumkinligi haqida mulohaza yuritishlari mutlaqo zarurdir. Bu esa musiqiy-pedagogik faoliyat sohasidagi mutaxassislarni professional tayyorlashning yaxlit tizimini (yagona organizmini) tashkil etadi. Mazkur tizim tizimli yondashuv asosida faoliyat ko'rsatib, shaxsning ta'lim bilan, ta'limning esa jamiyat bilan o'zaro hamkorligini amalga oshiradi[5:125].

Oliy ta'lim muassasalari akademik xonandalik yo'nalishi talabalarining ijrochilik mahoratini shakllantirish murakkab va ko'p qirrali jarayon bo'lib, uning markazida bevosita pedagogning kasbiy mahorati turadi. Mazkur kasbiy mahorat oliy ta'lim jarayonida tizimli ravishda takomillashib borishi, o'z navbatida, milliy opera va xonandalik san'ati uchun raqobatbardosh, yuksak ma'naviyatli va professional kadrlarni tayyorlashning asosiy kafolatidir. Shunday qilib, pedagog mahorati va talabaning ijrochilik faolligi o'rtasidagi uyg'unlik akademik xonandalik ta'limining sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarilishini ta'minlaydi.

Ushbu jarayonda pedagogning mahorati talabaga vokal texnikasini o'rgatish, musiqa san'atining tub mohiyatini ya'ni uning inson ruhiyatiga ta'sir etish kuchini ochib berishida ham namoyon bo'ladi. Akademik ijrochilik shunchaki ovoz imkoniyatlarini namoyish etish emas, chuqur falsafiy va estetik mazmuni tinglovchiga yetkazib berish vositasidir. Sababi, musiqaning kuchi va uning jamiyatdagi o'rni insoniyatning eng nozik hissiyotlarini uyg'ota olishi bilan belgilanadi.

“Musiqqa shunday san'at turiki, – deydi Asafyev Boris Vladimirovich, u insonlarni kechinmalari, emotsional hissiyotlari orqali birlashtiradi. Ular orasidagi aloqa vositasiga aylanadi. Musiqqa tarbiyasi estetik tarbiyaning tarkibiy qismi hisoblanadi. inson shaxsini shakllantiruvchi yetakchi omillardan biri – ta'lim-tarbiyadir.

Ayonki, tarbiya inson ongiga, his-tuyg'ulariga, tasavvuriga, e'tiqodiga, dunyoqarashiga, xatti-harakatlariga, xulq-atvoriga ta'sir o'tkazadi. Musiqqa tili barchaga tushunarli va yaqindir. Musiqqa tovush tovlanishlari orqali fikr va tuyg'ularni aks ettiradi, hayot bosqichlarida insoniyatni to'liqlantirib kelgan axloqiy muammolarni bayon qiladi. Bunda musiqaning falsafiy mohiyati ham namoyon bo'ladi. Ajoyib musiqqa asarlari chuqur falsafiy mazmun bilan sug'orilgan bo'ladi, musiqada hayot va o'lim, shaxs va jamiyat, ezgulik va zulm, qudrat va zaiflik kabi masalalar aks etadi. Musiqaning inson ruhiyatiga ta'sir qilishining tugallanmas imkoniyatlari haqida qadimdan musiqashunoslar, mutafakkirlar va olimlar diqqatini o'ziga tortgan.

Faylasuflar, psixologlar, pedagoglar va jamoat arboblari san'atlar ichida musiqa san'atining insonni shaxs sifatida shakllanishiga ta'sir qiladigan xususiyatlari haqida aniqlashga uringanlar. Musiqqa inson his-tuyg'ularini, orzu-umidlarini, xohish-istaklarini o'ziga xos badiiy tilda ifoda etadi va kishining his-tuyg'ulariga faol ta'sir etadi. Musiqqa ham fan, ham san'atdir[4:13].

Akademik xonandalik san'ati ovoz apparatining jismoniy tayyorgarligini, ijrochining kuchli psixologik barqarorligini taqozo etadi. Bo'lajak xonandaning sahnaviy obrazi va ijro mahorati uning o'z ustida ishlash qobiliyati hamda xarakteridagi ijobiy xislatlar bilan uzviy bog'liqdir. Pedagogning kasbiy mahorati aynan shu nuqtada, talabaning ruhiy olamidagi to'siqlarni aniqlash va ularni bartaraf etishga yo'naltirilgan pedagogik-psixologik ta'sirida yaqqol namoyon bo'ladi. Sababi, professional kamolotga erishish jarayoni faqatgina vokal mashqlari bilan cheklanib qolmay, ijrochining o'z xarakteri ustidan g'alaba qozonishini ham o'z ichiga oladi. Musiqachi qanday tabiiy qobiliyatga ega bo'lmasin, u ham xuddi hayotda nimagadir erishmoqchi bo'lgan har qanday odam kabi ichki va tashqi g'ovlarni engib o'tishi uchun irodaviy kuch sarflashiga to'g'ri keladi. Lekin ko'pincha ijobiy sifatarga ega bo'lishni istagan holda u o'ziga yoqimli va qulay bo'lgan nuqsonlaridan voz kechgisi kelmaydi.

Yalqovlik, serjahllik, uyatchanlik, bo'shanglikni engish juda ko'p mehnatni, mehnat irodani, iroda esa katta xohishni talab etadi[6:35]. Shu ma'noda, oliy vokal ta'limi jarayonida pedagog ovoz sozlovchi mutaxassis hamda talabaning irodasini toblaydiigan murabbiy sifatida ham gavdalanadi. Yuqorida ta'kidlanganidek, ichki g'ovlarni yengish va nuqsonlardan voz kechish jarayoni o'qituvchi va talabaning hamjihatlikdagi mehnatini talab etadi. Pedagogning kasbiy mahorati talabada ana shu "katta xohish" va irodani uyg'ota olishida, uni nafaqat professional ijrochi, balki o'z maqsadiga sodiq, irodali shaxs sifatida tarbiyalashida o'z aksini topadi. Bu esa akademik xonandalik maktabining barqaror rivojlanishi va talabalarning xalqaro sahnalarda munosib o'rin egallashini ta'minlovchi asosiy omillardan biridir.

Xulosa o'rnida ta'kidlash joizki, oliy ta'lim muassasalarida akademik xonandalik yo'nalishi talabalarining ijrochilik mahoratini shakllantirish murakkab va nozik ruhiy-ma'naviy jarayondir. Bunda pedagogning kasbiy mahorati esa, bo'lajak san'atkorning ichki olamini kashf etuvchi, uning irodasini takomillashtiruvchi va ijodiy yo'lini yorituvchi mayoq vazifasini o'taydi. Akademik vokal san'atida yuksak natijalarga erishish uchun pedagogdan kuchli psixologik kuzatuvchanlik hamda talabaning individual xususiyatlariga moslashuvchanlik talab etiladi. Shunday qilib, pedagogik mahorat talabaga musiqa orqali hayot va san'atning chuqur falsafasini anglatish, uni professional sahnaga ruhan va jismonan tayyorlash san'atidir. Pedagog mahorati va talabaning ijodiy shiddati o'rtasidagi uyg'unlik milliy ijrochilik san'atimizning kelajagini ta'minlovchi, jahon sahnalarida munosib e'tirof etiladigan raqobatbardosh kadrlarni shakllantirishning asosiy kafolati bo'lib qoladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Вэй Я. Подготовка специалистов вокального искусства в системах высшего музыкального образования Китая и России //Дисс. канд. пед. наук. Астрахань. – 2015.
2. Козлов Н. И. Теоретическая и методическая профессиональная подготовка студентов педагогических вузов к формированию музыкальности учащихся : автореф. дис. ... д-ра пед. наук : 13.00.02 / Козлов Николай Иванович ; [Моск. гос. открытый пед. ун-т им. М. А. Шолохова]. – М., 2006. – 46 с.
3. Мусурманова О. Умумий педагогика. – Тошкент: Ёшлар. 2020. – 376 б.
4. Холиқов А. Педагогик маҳорат. – Тошкент.: "Иқтисод молия", 2010,-12 б.
5. Ситникова О. В. Педагогические условия овладения студентами инструментальным исполнением в системе подготовки специалистов в области музыкально-педагогической деятельности Ставропольский государственный педагогический институт // «Известия ВолГТУ» академик РАН ИА Новаков. – 2012. – С. 123-126.
6. Қодиров Р.Ф. Муסיқа психологияси. – Тошкент.: Муסיқа, 2005. 80 б.